“ONA” KONSEPTINING USLUBIY KONVIRGENSIYA ASOSIDA IFODALANISHI (O‘.HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI”QISSASI ASOSIDA)

Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-kurs magistranti Safarova Nigora
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. N.J.Yarasheva

Annotasiya: Tilshunoslik tizimi yangilangani sari unda yangi tizimlar, tarmoqlar bilan birgalikda yangi tushuncha va atamalar ham paydo bo‘lib boradi. Konvirgensiya ham shular jumlasidan hisloblanadi. Uslubiy vositalar bilan ifodalangan konvirgensiya esa linvopoetika hamda kongnitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Maqolamizda “ona” konseptining uslubiy konvirgensiya asosida ifodalanishni ko‘rib chiqamiz.

Konvirgensiya tilshunoslikning yangi terminlardan biri hisoblanib, bir stilistik maqsadning ikki va undan ortiq stilistik birliklarni bir vaqtning o‘zida qo‘llashga nisbatan aytilsa, kognitiv tilshunoslikda uslubiy konvirgensiya esa bir kognitiv ma’noni ikki va undan ortiq uslubiy vositalar yordamida birgalikda qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. Uslubiy vositalarga sintaktik parallelism, emorsinal gaplar, ritorik so‘roq gaplar, inversiya, ellipsis, garadatsiya, antiteza, farqlash, o‘xshatish, farqlash[1], paselyatsiya, segmintatsiya, takror (anafora, epifora) va xiazm kirishi barchamizga ma’lum. Konsept va unga aloqador bo‘lgan minikonseptlarning mental mazamun-mohiyatini ochib berishda uslubiy konvergensiya alohida rol o‘ynaydi. Xususan, “ona” konsepti va unga aloqador bo‘lgan sadoqat, mehr-muhabbat, go‘zallik, latofat, halollik, rahim-shavqat,

1. [1] M.Yo‘ldoshev Badiiy matnning lisoniy tahlil- o‘quv qo‘llanma Toshkent-2007ю 83-94-betlar

fidoiylik, tarbiya va shunga o‘xshash boshqa minikonseptlarni ifodalash va mamoyon qilishda ham ahamiyatli. Fikrimizning dalilli sifatida O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida olingan badiiy matnlarni keltishimiz mumkin.

"– Men osmondan yulduzimni tanladim. Qarang, oyi, yetti og‘ayni orasidagi **eng yorug‘ yulduz – meniki…** – Mayli, o‘g‘lim. O‘sha yulduz seniki. Anavi to‘rtinchisi – meniki. – Nega, oyi, to‘rtinchisi eng kichkina yulduz-ku! – **Shuning uchun ham meniki...** To‘rtinchi yulduz – **yetimcha yulduz**. Ko‘rdingmi, yaxshi o‘smay qolgan. Yetimlarga rahm qilish kerak”.[2] Ushbu matndan parchada konvergensisiya ya’ni onaning farzandani yetimlarga nisbatan mehrli qilib tarbilash minikonsepti yashirin shaklda tasvirlangan. Konvirgensiyani ifodalashda esa antitezalar (eng yorug’, eng kichik), o‘xshatish (yetimcha yulduz) va ellipsisdan unumli foydalanilgan.

Quyidagi parchada esa onaning bolalarni ahillik va inoqlikka chorlash **konvergensiysini** turli ertak, afsonalarda tasvirlangan ahillik minikonseptini orqali bola kogneziyasida shakllainishida unumli foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. “**Bola edim, go‘dak edim**. Onam aka-ukalar haqida g‘alati bir cho‘pchak aytib bergan edi… **Bechora onam**! **O‘sha iztirobli afsonani aytayotganingda inidan mo‘ralagan qaldirg‘och bolasidek ko‘rpadan bosh chiqarib yotgan besh bolang bir-biri bilan inoq bo‘lishini shunchalik xohlaganmiding**!...Onalar farzandlari hamisha birga bo‘lishini istaydilar.”[3] Ushbu konvergensiyani ifodalashda sintaktik parallelism, o‘xshatish va emotsional gapdan foydalanilgan. Yuqori fikrimizning misoli sifatida quyidagi misolni ham keltirishimiz mumkin: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir yigit bo‘lgan ekan. O‘zi yaxshi yigit ekan-u, bir kuni onasini xafa qilib qo‘yibdi… Ertalab ko‘chaga chiqsa, qo‘shni kampir ikki bukilib obkashda suv olib ketayotganmish. Yigit yugurib borib

[2] O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari”-“Yangi asr avlodi” Toshkent-2015. 5-6-bet

[3] [3] O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari”-“Yangi asr avlodi” Toshkent-2015. 10-bet

kampirning qo‘lidan obkashni olmoqchi bo‘libdi. Kampir bo‘lsa, rahmat o‘rniga yigitning yelkasiga obkash bilan rosa uribdi «Sen, – debdi kampir yigitga, – birovning ko‘nglini ovlashdan oldin o‘z onangning ko‘nglini og‘ritmaslikni o‘rgan»... – Oyim uzoq jimib qoladi, keyin sekin davom etadi. – Ko‘rdingmi, odam eng avvalo o‘zining yaqinlarini yaxshi ko‘rishi kerak. **Dunyoda yaxshi odamlar ko‘p. Judayam ko‘p**. **Ammo sen adangni, opangni, akalaringni yaxshi ko‘rmasang...** – Sizniyam, – deyman uning gapini bo‘lib. – **Meniyam...** – deydi onam kulib. – Meniyam yaxshi ko‘rmasang, dunyoda hech kimni yaxshi ko‘rolmaydigan bo‘lib qolasan”[4]. Ushbu misolda konvergensiyani ifodalsh uchun sintaktik parallelism, ellipsisdan foydalanib, “ona” konseptiga xos bo‘lgan mehr-muhabbat mini konsepti namoyish qilingan.

Onalar qadmdan mehr monumenti hisoblanishadi, ular uchun bolaning begonasi yo‘q, ular bola ayirishmaydi. “– Qiziqsiz, – dedim jahlimni bosolmay, – hammaning ishiga aralashaverasizmi? – Nima hammaning ishi? – **Birovning bolasi bo‘lsa...** Yig‘lasa, sizga nima? Yig‘lab-yig‘lab ovunadi. – **Nimaga birovning bolasi bo‘larkan!** – To‘satdan onamning jahli chiqib ketdi. – **Yig‘lab turgan bolaning begonasi bo‘ladimi? Uyalmaysanmi shunaqa degani? Yig‘lab turgan norasidaga rahmi kelmagan odam – odammi?”**[5] Ushbu matndan parchada onalarning bolalarga nisbatan o‘zgacha o‘lchovlari bor bo‘lishini ritorik so‘roq gaplarning gradatsiyalashuvi hamda ellipsis hodisasi orqali namoyish qilingan.

Onalar eng qadrli zot, ammo biz buni juda kech anglab yetamiz. O‘shandagi ona biz uchun tayanch, umid beruvchi shaxs va bizni doim qo‘llab turuvchi kishi ekanligini his qilamiz. Ijodkor ham shu qarashlarni asar tarkibidagi mantdan parchalarda onadan ayrolik dardini uslubiy konvergensya asosida ifolagan: “Sen mening suyangan tog‘imsan, o‘g‘lim... Bilmagan ekanman, **men onamning emas,**

[4] O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari”-“Yangi asr avlodi” Toshkent-2015. 15-bet

[5] O‘sha asar 26-bet

onam mening suyangan tog‘im ekan. Tog‘im to‘satdan qulab tushdi. Bugun yangi kitobim chiqdi. **Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, oltmish ming kitobning hammasini onamga bag‘ishladim**. **Lekin...”** Bu o‘rinda usluniy konvergensiya xiziazm, inversiya, ellipsis asosida namoyish qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, uslubiy konvirgensiya konsept, xususan “ona” konseptini ifodalash va namoyon qilishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. D.Xudoyberganova Matnning antroposentrik tadqiqi- “Fan” nashriyoti Toshkent-2013
2. M.Yo‘ldoshev Badiiy matn lingvopoetikasi- “Fan” nasriyoti Toshkent-2008
3. M.Yo‘ldoshev Badiiy matnning lisoniy tahlil- o‘quv qo‘llanma Toshkent-2007
4. T.H.Asadov Matn Tilshunosligi- O‘quv qo‘llanma Buxoro “Durdona”nasriyoti-2023
5. **Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006**
6. O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari”-“Yangi asr avlodi” Toshkent-2015